

IDEOLOGIK QUROL SIFATIDA PLAKAT: IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI TARG'IBOT TAJRIBASI

Parnomov Alisher Bozorovich

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqida targ'ibot aholi ruhiyatini mustahkamlash va milliy birdamlikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi. Plakatlar eng ta'sirchan vosita sifatida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish va aholini safarbar qilishda qo'llanildi. O'zbekiston SSRda mahalliy rassomlar ishlagan plakatlarda milliy obrazlardan keng foydalanildi. Ular orqali mehnat intizomi kuchaytirildi, hosil yig'im-terimi va frontga yordam g'oyalari xalq ongiga singdirildi. Plakatlar orqa frontda ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirib, ayollar va yoshlarni mehnat safiga jalb etdi. Shu tariqa, plakatlar xalqning ma'naviy birligi va g'alabaga ishonchini mustahkamlagan tarixiy hujjat sifatida namoyon bo'ldi.

Kalit so'zlar. Ikkinchi jahon urushi, Sovet Ittifoqi, targ'ibot, plakat san'ati, O'zbekiston SSR, vatanparvarlik, milliy birdamlik, orqa front, ma'naviy birlik, g'alaba.

Аннотация. В годы Второй мировой войны пропаганда в Советском Союзе стала важным фактором укрепления морального духа населения и обеспечения национального единства. Плакаты использовались как одно из самых действенных средств для распространения идей патриотизма и мобилизации населения. В Узбекской ССР в плакатах, созданных местными художниками, широко применялись национальные образы. Через них укреплялась трудовая дисциплина, пропагандировался сбор урожая и помощь фронту. Плакаты усиливали социальную ответственность в тылу, вовлекая женщин и молодежь в трудовую деятельность. Таким образом, плакаты проявились не только как





художественные произведения, но и как исторические документы, укреплявшие духовное единство народа и веру в победу.

Ключевые слова. Вторая мировая война, Советский Союз, пропаганда, плакатное искусство, Узбекская ССР, патриотизм, национальное единство, тыл, духовное единство, победа.

Abstract. During the Second World War, propaganda in the Soviet Union became an important factor in strengthening the morale of the population and ensuring national unity. Posters were used as one of the most effective tools to promote patriotic ideas and mobilize the people. In the Uzbek SSR, posters created by local artists widely employed national images. They promoted labor discipline, harvest collection, and support for the front. Posters reinforced social responsibility on the home front, engaging women and youth in productive work. Thus, posters emerged not only as artistic works but also as historical documents that strengthened the spiritual unity of the people and their faith in victory.

Keywords. Second World War, Soviet Union, propaganda, poster art, Uzbek SSR, patriotism, national unity, home front, spiritual unity, victory.

Ikkinchi jahon urushi jarayonida to'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, targ'ibot faoliyati ijtimoiy ongni boshqarish, aholining ruhiy holatini mustahkamlash va fuqarolarda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Targ'ibot murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmun-mohiyati jamoatchilik fikrini shakllantirish, shaxsiy qarashlar va tasavvurlarni muayyan maqsadlar sari yo'naltirish hamda jamiyat a'zolarida zarur hissiy kayfiyatni yuzaga keltirishga qaratilgan edi.

Urush yillarida Sovet Ittifoqida olib borilgan ideologik targ'ibot davlat siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu targ'ibot, avvalo, aholi orasida vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash va turli millat vakillari o'rtasida milliy birlikni ta'minlashga qaratildi. Shu jarayonda rus xalqining hamda ittifoq tarkibidagi boshqa millatlarning tarixiy



qahramonligi, ularning jasoratli o'tmishi keng targ'ib qilindi va ijtimoiy ongda yuksak qadriyat sifatida mustahkamlandi[1].

Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet targ'iboti ko'pincha "uchinchi front" sifatida talqin qilingan. Mazkur jarayonning asosiy vazifasi dushman ruhiyatini susaytirish, Qizil Armiya askarlarining jangovar ruhini yuksaltirish hamda ittifoqchilarning faoliyatini ijobiy jihatdan targ'ib qilishdan iborat edi. Targ'ibot siyosati doimiy o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga majbur bo'lib, mavzular va yo'nalishlarni tashqi siyosiy vaziyat hamda frontdagi holatlarga qarab tez-tez yangilab bordi[2]. Urush davrida eng samarali targ'ibot vositalari sifatida turli xil plakat va varaqalar, radioeshittirishlar hamda badiiy va hujjatli filmlar keng qo'llanildi.

Shu vositalar ichida plakatlar alohida o'rin tutdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida plakat targ'ibotning eng ta'sirchan vositalaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etdi. Plakatlar orqali xalqda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, front va tildagi aholini bir maqsad yo'lida safarbar etish maqsad qilindi. Urushning dastlabki kunlaridayoq qahramonlik, xalq birdamligi va nemis fashizmiga qarshi kurash mavzularida yuzlab plakatlar yaratildi. Shular orasida I. Toidzining mashhur "*Rodina-mat zovoyot!*"[3] (1941) asari, R. Gershanikning "*Nashe delo pravoye. Vrag budet razbit!*" hamda V. Konashevichning "*Ne boltay, vrag slushayet*"[4] kabi asarlari keng tarqaldi.

O'sha davrda plakatlar nafaqat Moskva va Leningradda, balki mamlakatning barcha hududlarida, jumladan O'rta Osiyo respublikalarida ham ommaviy tarzda chop etildi. O'zbekiston SSRda ham plakat san'ati urush yillarida jonlandi. Toshkent va respublikadagi yirik shaharlarda plakatlar mahalliy nashriyot va rassomlar ishtirokida ko'paytirilib, aholi orasida tarqatildi. Ular orqali mehnat intizomiga rioya qilish ("*Chem krepche til, tem krepche front!*"), hosilni to'liq yig'ish ("*Bolshe xleba dlya fronta i tila!*"), har bir fuqaroning frontga yordam berishi ("*Ti chem pomog frontu?*") kabi g'oyalar xalq ongiga singdirildi. Ayniqsa, o'zbek rassomlari ishlagan plakatlarda milliy



obrazlardan foydalanilib, ular orqali mahalliy aholi ruhiyatiga yaqin targ'ibot o'tkazildi.

O'zbekistondagi plakatchilik frontdagi kabi orqa frontda ham "qurol" sifatida ko'rildi. Urush yillarida plakatlar shahar ko'chalariga, zavod va fabrikalarga, qishloqlardagi madaniy muassasalarga osilib, aholida mas'uliyat hissini kuchaytirar edi. Shuningdek, ular partizan harakatini qo'llab-quvvatlash, ayollar va yoshlarni mehnat safiga jalb qilishda ham muhim ideologik vosita bo'ldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ikkinchi jahon urushi yillarida plakatlar nafaqat original badiiy asar sifatida, balki xalqning ruhiy kuchi va mafkuraviy birligini ta'minlagan tarixiy hujjat sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston SSRdagi plakatlar esa mahalliy aholining milliy qadriyatlariga tayangan holda umumittifoq g'oyalarini targ'ib qilish orqali mamlakat g'alabasiga munosib hissa qo'shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Манаенков А.И. Культурный фронт в годы Великой Отечественной войны. / А. И. Манаенков. - М.: Знание, 1988. - 62 с.
2. Советская пропаганда в годы Великой Отечественной войны: «Коммуникация убеждения» и мобилизационные механизмы. - М.: РОССПЭН, 2007. – С. 21.
3. Советский политический плакат. Золотая коллекция. – М., Контакт-Культура, 2006. – С. 90.
4. Learn Russian in the EU Советские плакаты. Часть 1: Общество и политика - (<https://www.learnrussianineu.com/ru/sovetskie-plakati-chast-1-obshhestvo-politika>)

